

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PULATOVA SAODAT MAXAMADAMINOVNA

**ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN TAYYORLOV va 1- SINF
O‘QUVCHILARINI SENSOR RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Pulatova Saodat Maxamadaminovna

Eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1- sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyasi..... 3

Пулатова Саодат Махамдаминовна

Технология сенсорного развития учащихся подготовительных и 1- классов с нарушением слуха..... 23

Pulatova Saodat Maxamadaminovna

Sensory development technology for students in grades 0-1 with hearing impairment..... 44

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 48

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PULATOVA SAODAT MAXAMADAMINOVNA

**ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN TAYYORLOV va 1- SINF
O‘QUVCHILARINI SENSOR RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Ped2918. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) www.tdpu.uz veb-sahifasining va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Muminova Lola Raximovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Xakimova Muhabbat Fayzievna
pedagogika fanlari doktori, professor

Turg'unboev Sirojiddin Fahriddinovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD


Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "15" 02 soat 1000 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy). Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1824 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "13" 02 kuni tarqatildi.

(2023 yil "13" 02 dagi 1824-raqamli reestr bayonnomasi).



Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

D.B.Yakubjanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, DSc,dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda defektologlarning korreksion-pedagogik faoliyati asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida o'tkazilgan ta'lim masalalari bo'yicha Butunjahon forumida qabul qilingan 2030 yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash va barchaning butun hayoti davomida o'qishi uchun imkoniyatlarni yaratish" qayd etilgan. Shu asosda bolalarni boshlang'ich ta'limda o'qish imkoniyatini ta'minlash, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash, pedagog-defektologlarni tayyorlashning pog'onali tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan modulyatsiyalangan texnologiyalarni yaratish, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'qitish jarayonida surdopedagogning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning o'qitish tizimini isloh qilish, pedagog-defektologlarning faoliyatini takomillashtirish, o'quvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual va differensial yondashuvlar asosida ularning bilimlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sog'lom bolalar qatori eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, maktabgacha va maktab ta'limi moddiy-texnik bazasini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, mazkur toifa bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirishning innovatsion va axborot-kommunikasion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish"¹ ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, mamlakatimizda sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarning har tomonlama sifatli ta'lim olishini ta'minlash, mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktabrdagi O'RQ-641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Milliy maxsus pedagogikada jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning korreksion-pedagogik jarayonlarini rivojlantirish masalalari L.Mo‘minova, R.Shomaxmudova, G‘.Shaumarov, I.Sagatov, Sh.Amirsaidova, Z.Axmedova, M.Ayupova, D.Nurkeldieva, L.Nurmuhamedova, P.Pulatova, X.Pulatova, V.Raxmanova, N.Raxmonqulova, Y.Chicherina, M.Hamidova, M.Hakimovalar; eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning psixologik, pedagogik va metodik tavsifdagi ilmiy izlanishlar F.Alimxo‘jayeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, N.Dadaxo‘jayeva, Z.Mamarajabova, D.Nazarova, R.Rustamova, U.Fayziyeva, F.Qodirova, D.Yakubjanova, G.Abdullayeva, X.Raximovalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlarida eshitishda muammolari bo‘lgan bolalarni hayotga moslashtirish maxsus metodlari F.Rau, S.Zikov, R.Boskis, A.Zikeev, T.Zikova, K.Korovin, I.Gilevich, L.Noskova, L.Golovchis; maxsus ta’lim tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi eshitish qobiliyatini rivojlantirishda sensor jihatdan va bilish faoliyatini takomillashtirish F.Rau, L.Neyman, V.Beltyukov, Y.Kuzmicheva, E.Leongard, D.Drozdova, A.Dyachkov, N.Shmatko, N.Slezina, V.Suxova, L.Tigranova, V.Timoxinlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Eshitishda muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash Adamo-Villani, N.Doublestein, J.Martin, Z.Barham, J.Bishop, A.Blatto-Vallee, G.Kelly, R.R.Gaustad, M.G.Porter, J.Fonzi, J.Brett E.Shelton, Mary Ann Parlin, Frostad, P.Kidd, D. H.Lamb, C.Kramer, F.Grote, K.Kritzer, K.L.Mervin D. (ed.) Garretson, Pagliaro Claudia, Terezinha, Nuneslar tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.)

Tadqiqotning maqsadi eshitishda nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va 1-sinf o‘quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarining korreksion-rivojlantiruvchi ta'limini tashkil etishning ilmiy-nazariy, metodologik va metodik yondoshuvlarning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish;

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilar sensor rivojlanish mezonlarini takomillashtirish;

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlanish modelini takomillashtirish;

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

Tadqiqotning ob'ekti sifatida eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Toshkent shaxri Toshkent viloyati, Jizzax viloyatidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 172 nafar o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik, pedagogik adabiyotlar, manbalar, DTS, o'quv reja, fan dasturlari, darsliklarni, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilari sensor rivojlanish xususiyatlari tushuncha va tasavvurlarni tarkib toptirish jarayonini, bola idrokining rivojlanishi hamda bolalarni hayotga irodali munosabatda bo'lishga moslashtirishning korreksion-pedagogik ishlarini uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyalari o'quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiy tarbiya, tafakkur va ong, muayyan sifat va ko'nikmalarni intensiv va jadal integratsiyalash hamda eshituv idrokini muntazam rivojlantirish, so'zlashuv nutqni muloqot vositasi sifatida shakllantirish, talaffuz ko'nikmalarini oddiydan murakkabga qarab tarkib toptirish asosida takomillashtirilgan;

eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarini sensor rivojlantirish modeli sensor etalonlarni shakllanish ontogenezi, perseptiv harakatlarni egallash, idrok etish hamda funksional poliform buzilishlarni kompensatsiyalash, yoshga mos ta'lim va ijtimoiy moslashuv hamda korreksion rivojlantiruv muhitning predmetli-o'yinli, sub'ektiv, integrativ va konsultativ imkoniyatlarini idientiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyalari didaktik sahnalashtirilgan pedagogik jarayonida manipulyativ ta'sir etish va predmetlarni qismlarga ajratish va yig'ishga o'qitish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish natijasida olingan xulosalardan eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga sensor jihatdan tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etishda, tayyorlov va 1-sinf o'quvchilari uchun "Matematika", "Atrofimizdagi olam", "Texnologiya (Predmet amaliy ta'lim)" darslarida, maxsus pedagogika fani muammolarini hal qilishda qo'shimcha material sifatida o'rganishda, defektologiya fakulteti talabalari hamda turdosh mutaxassisliklar bo'yicha maxsus ta'lim muassasalari xodimlari uchun tashkil etiluvchi "Surdopedagogika" yo'nalishi bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash kurslarida, shuningdek kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlari rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish kurslarida, shuningdek eshitishida muammolari bo'lgan farzandlar ota-onalari uchun uydagi ta'lim-tarbiyani tashkil etishlarida manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yondashuvlar, metodlarning respublikamiz va xorijda yaratilgan pedagogika va maxsus pedagogikaga oid ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlarga, amaliyotchi-o'qituvchilarning tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilmiy asoslangan ma'lumotlar, muammoni aniqlash yo'llari, aniqlangan muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik tavsiyalar ilmiy xodimlar tomonidan qo'llanmalar, metodik tavsiyalar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida surdopedagog mutaxassislarni tayyorlashda hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim mazmunini nazariy jihatdan boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, uning natijalari imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun moslashtirilgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv metodik adabiyotlarni takomillashtirish, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni sensor rivojlantirish va ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilari sensor rivojlanish xususiyatlari tushuncha va tasavvurlarni tarkib toptirish jarayonini, bola idrokining rivojlanishi hamda bolalarni hayotga irodali munosabatda bo'lishga moslashtirishning korreksion-pedagogik ishlarini uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Maxsus psixologiya (Surdopsixologiya)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 4 maydagi 285-son buyrug'iga asosan berilgan 285-118-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak mutaxassislarni eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, bilish faoliyatlarining rivojlanishi bilan bog'liq kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash jarayoni yaxshilangan;

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyalari o'quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiy tarbiya, tafakkur va ong, muayyan sifat va ko'nikmalarni intensiv va jadal integratsiyalash hamda eshituv idrokini muntazam rivojlantirish, so'zlashuv nutqni muloqot vositasi sifatida shakllantirish, talaffuz ko'nikmalarini oddiydan murakkabga qarab tarkib toptirish asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar "Maxsus psixologiya (Surdopsixologiya)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 4 maydagi 285-son buyrug'iga asosan berilgan 285-118-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashda individual va differensial yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan;

eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarini sensor rivojlantirish modeli sensor etalonlarni shakllanish ontogenezi, perseptiv harakatlarni egallash, idrok etish hamda funksional poliform buzilishlarni kompensatsiyalash, yoshga mos ta'lim va ijtimoiy moslashuv hamda korreksion rivojlantiruv muhitning predmetli-o'yinli, sub'ektiv, integrativ va konsultativ imkoniyatlarini idientiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Maxsus psixologiya (Surdopsixologiya)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 4 maydagi 285-son buyrug'iga asosan berilgan 285-118-son nashr ruxsatnomasi). Natijada eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga imkon yaratilgan;

eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyalari didaktik sahnalashtirilgan pedagogik jarayonida manipulyativ ta'sir etish va predmetlarni qismlarga ajratish va yig'ishga o'qitish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Maxsus psixologiya (Surdopsixologiya)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 4 maydagi 285-son buyrug'iga asosan berilgan 285-118-son nashr ruxsatnomasi). Natijada eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarining korreksion-rivojlantiruvchi ta'limini tashkil etishning ilmiy-nazariy, metodologik va metodik yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etishga sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2ta xalqaro va 2ta respublika konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan, 3 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va

predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va 1-sinf o‘quvchilarini sensor jihatdan rivojlantirish bosqichlarining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarning sensor rivojlanish masalalari, eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar sensor rivojlanish holatlari, eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarni sensor rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda muammoning nazariya va amaliyotdagi holati bayon etilgan.

Mamlakatimiz mustaqilligining qisqa davri ichida bunday yuqori natijalarga erishishimiz Respublika hukumatining istiqlolning dastlabki kunlaridanoq o‘zimizga xos va o‘zimizga mos iqtisodiyot hamda ijtimoiy modeli, ya‘ni ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilab olishi bilan bog‘liqdir. Hukumatimiz tomonidan inson mafaatlari ko‘zlash va himoyalash barobarida, jamiyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e‘tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz.

Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar kishilik jamiyatigagina xos bo‘lgan ma‘naviy boylik va qadriyatlarni psixik jarayonlarining o‘zgacha rivojlanishi oqibatida mustaqil holda egallay olmaydilar. Eshitishning inson hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Inson va atrof muhit doimiy o‘zaro aloqada bo‘lib, ushbu aloqadorlik turli xil: ko‘rish, eshitish, teri, ta‘m, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi.

Eshitish analizatori barcha analizatorlar ichida eng ahamiyatlilaridan sanaladi. I.M.Sechenovning fikricha, ko‘pgina insonlarda eshitish sezgilari boshqa barcha sezgilarga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. Ya‘ni inson atrof-olamni anglashda sezgi a‘zolari ichidan eshitish analizatorini eng ko‘p ishga soladi.

Lekin eshitishning asosiy vazifasi nutqni idrok qilish sanaladi. To‘laqonli eshitish nutq shakllanishining omilidir. Nutq orqali esa insonning so‘z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo‘ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, ularni in‘ikosicha so‘z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo‘ladi. Inson o‘zi ko‘rgan va ta‘sirlangan buyum va hodisalarni so‘z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taasurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko‘rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har qanday buyum hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o‘rnashib qolishida nutq etakchi vosita hisoblanadi.

Bolaning sensor rivojlanishi deganda predmetlarning tashqi xususiyatlari haqidagi tasavvurlarining shakllanishi va bola idrokining rivojlanishi tushuniladi: predmetlarning shakllari, rangi, hajmi, fazodagi holati, shuningdek hidi, mazasi va h.k.ni ajratishi.

Sensor tarbiya bolaning kelajak hayoti uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligiga amin bo‘ldik. Bu maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyoti oldiga maktabgacha tarbiya muassasasida qo‘llash uchun yangi va samarali ta‘lim-tarbiya

vositalari va usullarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Sensor tarbiyaning muhim yo'nalishi bolada sensor madaniyatni rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni hayotga moslashtirish tizimining ilmiy-metodik ta'minotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan o'qitish mazmuni masalalarini, maxsus metodlarning ilmiy-nazariy asoslari va maxsus ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi eshitish qobiliyatini rivojlantirishda sensor jihatdan va bilish faoliyatini ilmiy-nazariy masalalari F.F.Rau, L.V.Neyman, V.I.Beltyukov, Ye.P.Kuzmicheva, E.I.Leongard, N.D.Shmatko, Slezina tomonidan, maxsus ta'lim muassasalarida olib boriluvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatdan asoslashgan. Zamonaviy tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlar eshitishida muammolari bo'lgan bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish idrokini muammosining erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuvlari masalalarini hal qilishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. E.I.Leongard, T.V.Pelinskaya, N.D.Shmatko, L.A.Golovchis tomonidan olib borilgan so'nggi yillardagi tadqiqotlar eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta moslashtirish kabi masalalari xal etilgan.

Milliy maxsus pedagogikada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan psixologik, pedagogik va metodik tavsifdagi ilmiy izlanishlar F.Alimxo'jayeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, N.Dadaxujayeva Z.Mamarajabova, D.Nazarova, R.Rustamova, U.Fayziyeva, F.Qodirova, D.Yakubjanova, G.Abdullayeva, X.Raximovalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Bolalarda sensor rivojlanishning ahamiyati haqida gapirar ekanmiz bolaning aynan 5-6 yoshdan sezgi organlari faoliyatini rivojlantirish va atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun juda maqbul yosh hisoblanadi. Pedagogikaga "sensor madaniyat" tushunchasi M.Montessori ishlari orqali kirib keldi. Biroq, uning fikricha, bunday madaniyatga ega bo'lish uchun bolaga predmetlarni ularning shakli, rangi, xajmi, va boshqa xususiyatlari bo'yicha farqlashni o'rgatish kerak.

Bolalar shakl, rang, hid, tur kabi tushunchalarga o'zlarining kundalik hayotlarida o'yinchoqlar va kundalik ro'zg'orda uchraydigan predmetlar orqali to'qnash keladilar, shuningdek, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik san'atlari namunalari bilan ham tanishadilar. Va, nihoyat, har bir bola avval ixtiyorsiz ravishda bularning barchasini o'zlashtiradi. Biroq o'zlashtirish ixtiyorsiz, kattalarning pedagogik yordamisiz yuz bersa, bunda u yuzaki, to'liq emas bo'lib qoladi. Mana shu o'rinda sensor tarbiya - bolani insoniyat sensor madaniyati bilan rejali, tizimli ravishda tanishtirish yordamga keladi.

Ta'lim jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarni sensor jihatdan rivojlantirish masalalarining ilmiy-nazariy tomonlarini o'rganish va dolzarbligini aniqlash, avvalo, bu ishning mazmunini, usullarini belgilash hamda metodik jihatdan tashkil etilishini ishlab chiqish, bugungi kunning talabidir. Biroq, ushbu kunda Respublikamizda bu mavzuga oid ilmiy tadqiqod umuman olib borilmagan. Bu yo'nalishda olib boriladigan ishning metodik jihatdan asoslab berilmaganligi, uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlanmaganligi, pirovardida eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishida muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Shunday qilib eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor buzilishlarini korreksion-pedagogik ishlar olib borilgan taqdirdagina ularning har tamonlama rivojlanishiga erishiladi.

1-jadval

Eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarida sensor etalonlarni rivojlantirish maqsadida tajriba-sinov ishlari uchun jalb etilgan o'quvchilar soni

№	Ta'lim muassasalari	Tayyorlov sinf	1-sinf
1	Toshkent shaxar M.Ulug'bek tumanidagi 101-kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat	0-A: 9 nafar bola 0-b: 8 nafar bola	1-a: 8 nafar bola 1-b: 8 nafar bola
2	Toshkent shaxar Olmazor tumani 106-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat	0-A: 8 nafar bola 0-b: 8 nafar bola	1-a: 9 nafar bola 1-b: 9 nafar bola 1-v: 9 nafar bola 1-g: 9 nafar bola
3	Toshkent viloyati Olmaliq shaxar 80-ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internat	0-A: 8 nafar bola 0-b: 8 nafar bola	1-a: 8 nafar bola 1-b: 8 nafar bola
4	Jizzax shaxar 1-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati	0-A: 8 nafar bola 0-b: 10 nafar bola	1-a: 10 nafar bola 1-b: 11 nafar bola
5	Jizzax shaxar 2-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati	0-A: 8 nafar bola	1-a: 8 nafar bola
		75	97
	Jami	172 nafar bola	

Dissertatsiyada sensor rivojlanish deganda predmetlarning tashqi xususiyatlari haqidagi tasavvurlarining shakllanishi va bola idrokining rivojlanishi, ya'ni

predmetlarning shakllari, rangi, hajmi, fazodagi holati, shuningdek hidi, mazasi va h.k.ni ajratishi ta'riflangan. Sensor rivojlanish, bir tomondan, bolaning umumiy aqliy rivojlanishining poydevorini tashqil etsa, boshqa tomondan, maktabgacha tarbiya muassasasi va maktabda bolaning samarali ta'lim va tarbiya olishida muhim o'rin egallaydi.

Dissertatsiyaning **“Eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va 1-sinf o‘quvchilarini sensor jihatdan rivojlanish xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va 1- sinf o‘quvchilarini sensor rivojlanish darajasini tajriba-sinov jarayonida o‘rganish metodikasining tamoyillari, maqsadi, vazifalari belgilab olindi va pedagogik tekshirishning mazmuni yoritildi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va 1-sinf o‘quvchilarida sensor etalonlarni rivojlantirish maqsadida tajriba-sinov ishlari Toshkent shaxridagi 101-kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatda, 106-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatda, Toshkent viloyati Olmaliq shaxridagi 80-kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatda, Jizzax shaxridagi 1-sonli zaif eshituvchi bolalar maktab-internati va 2-sonli kar bolalar maktab-internatlarining tayyorlov va 1-sinf o‘quvchilari jalb etildi.

Ta'kidlovchi tadqiqot 4 bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirildi:

1 bosqich-eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va birinchi sinf o‘quvchilarini sensor jihatdan rivojlanish xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov metodikasini shakllantirish;

2 bosqich-eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va birinchi sinf o‘quvchilarini sensor jihatdan rivojlanish xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinovni o‘tkazish;

3 bosqich-eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va birinchi sinf o‘quvchilarini sensor jihatdan rivojlanish xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov natijalari tahlili;

4 bosqich-Imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari uchun o‘quv dasturlari tahlili (kar va zaif eshituvchi bolalar maktab –internatlari uchun).

Ta'kidlovchi eksperiment metodikasini ishlab chiqishda, rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan korreksion ishlarning o‘ziga xosligini surdopedagogika fanining tamoyillari va metodlariga tayanildi. Tadqiqot maqsadi va vazifalarni amalga oshirish uchun biz 5 ta vazifalardan iborat topshiriq tanlandik. Ushbu topshiriqlarlar quyidagilardan iborat:

1–topshiriq: eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va birinchi sinf o‘quvchilarida ranglarni qay darajada idrok etishini aniqlash maqsadida bo‘yalgan rasmga qarab ikkinchi nusxadagi bo‘yalmagan rasmni bo‘yash taklif etildi.

2–topshiriq: eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va birinchi sinf o‘quvchilarida piramida bilan o‘tkazilgan test sinovida, o‘quvchilarni predmet, narsalarni katta – kichikligini, idrok etishni va berilgan halqalarni joylashtirish talab etildi.

3-topshiriq:geometrik shakllarni idrok etish qobiliyatini aniqlash uchun bir nechta geometrik shakllar berildi.

4-topshiriq: predmetni yaxlit idrok etish qobiliyatini aniqlash maqsadida 5 elementdan tashkil topgan kesma rasmlar beriladi.

5-topshiriq: predmetni yaxlit idrok etish qobiliyatini aniqlash maqsadida 10 qismdan tashkil topgan kesma rasmlar berildi.

Natijalari quyidagi ballarda baholandi:

5 ball – bola vazifani xatosiz bajardi;

4 ball – bola vazifani surdopedagog yordamida bajardi;

3 ball – bola vazifani bajara olmadi;


2 ball – bola vazifani bajaradi, bajarishdan voz kechdi.

Topshiriqni bajarishga kirishishdan avval tekshiriluvchi nima qilishi lozimligi va uning beradigan javobi qanday shaklda bo‘lishi haqida ko‘rsatma oldi. So‘ngra tekshiriluvchi topshiriqni bajarishga kirishadi, eksperimentator esa bayonnomada uning javoblarini qayd qilib boradi. Bunda tekshiriluvchiga berilgan qo‘shimcha yordam, uning natijasi, bolaning eksperiment o‘tkazish jarayonidagi xulqining xususiyatlari, uning topshiriqqa nisbatan munosabati ham e‘tiborga olingan holda bayonnomada aks ettiriladi. Bayonnomada bolalarning topshiriqni bajarishdan bosh tortish holatlari ham qayd qilindi va mazkur ruhiy holatni keltirib chiqaruvchi omillar aniqlanadi. Bolaning har bir vazifani bajarish bo‘yicha harakatlarini baholashda quyidagilarga e‘tibor qaratildi: pedagog bilan hamkorlik qilishga tayyorlik; topshiriqni qabul qilish; o‘z harakatlarining noto‘g‘riligini aniqlash qobiliyati; faoliyat natijasiga qiziqish; topshiriqni bajarish usuli (mustaqil ravishda, namoyishdan keyin, birgalikdagi harakatlardan keyin, bajarilmasligi);

Ko‘rgazma material sifatida predmetli, voqeaband rasmlardan, o‘yinchoqlardan foydalanish rejalashtirildi. Bolalarning sensor etalonlarini o‘rganish jarayonida tibbiy-pedagogik hujjatlarni tahlil qilish, eksperiment, suhbat, kuzatish va tekshirish natijalarini statistik baholash metodlari qo‘llanildi.

1-rasm

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni sensor etalonlarini rivojlanganlik holati (ta’kidlovchi tajriba-sinov natijasi)



Barcha topshiriqlar bo‘yicha olingan ballarni jamlaganda tayyorlov va 1-sinf eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarida yuqori daraja aniqlanmadi, 38% (66 nafar)

o'quvchilar kattalar bilan tez aloqa o'rnatadi, vazifalar bolalar uchun qiziq bo'ldi. Faoliyat jarayoniga ijobiy hissiy munosabat tekshiruv tugaguniga qadar saqlanib qoladi. Bu o'quvchilar topshiriqni bajarishda maqsadli harakatlarni amalga oshirishdi, lekin xatolarni faqatgina kattalar yordamida tuzatishdi. Ba'zi hollarda olingan natija kattalar namunasiga to'liq mos kelmadi. Rang, shakl, katta-kichiklik bo'yicha aniq tasavvurlarga ega. Vazifalarni bajarishda bola proba, amaliy urinish usullaridan, shuningdek vizual mo'ljal olishdan foydalanadi. Yetakchi qo'l aniqlangan, lekin ikkala qo'lning harakatlari har doim ham muvofiqlashtirilmagan.

45% (78 nafar) o'quvchilar kattalar bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklar kuzatildi, aloqa ko'pincha rasmiy shaklda namoyon bo'ldi. Bolalarni mashg'ulotning umumiy holati qiziqirdi, lekin odatda topshiriqlarning mazmuniga, ularni amalga oshirish natijasiga befarq bo'lishdi. Xatolarni mustaqil aniqlik olishmadi va tuzatish holatlari kuzatilmadi. Mustaqil ravishda va kattalar yordami bilan bir qator sodda topshiriqlarni bajarishdi, ammo bu sodda harakatlar topshiriqni to'liq bajarilishiga olib kelmadi. Orientatsiyaning qidiruv usullari bilan bir qatorda kuch bilan harakatlar va variantlarni birma bir qilib o'tish qayd etildi. Shu bilan birga, o'quvchilar harakatning noto'g'ri variantlarini saralamasdan yana takrorlash holatlari ham kuzatildi. Ikkala qo'lning harakatlari muvofiqlashtirilmaganligi namoyon bo'ldi.

17% (30 nafar) o'quvchilarda sensor etalonlarning rivojlanganligi holatining juda past darajasi aniqlandi. O'quvchilarda kattalar bilan aloqaga kirishmaslik, topshiriqlarning mazmuniga befarqlik holatlari aniqlandi. Topshiriqlarni to'g'ri bajara olishmadi. Rang, shakl, katta-kichiklik xaqidagi tasavvurlar, to'liq obrazlarni shakllantirish qobiliyati shakllanmagan.

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarida rangni idrok etish darajasi sog'lom o'quvchilarnikidan ancha past bo'ldi. Rang idrokining rivojlanish darajasi past bo'lgan o'quvchilar vazifani bajarishda, masalan, qalam rangini aniqlashda qiyinchiliklarga uchradilar. O'rtacha rivojlanish darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar esa bir xil rangdagi qalamlar orasidan biron tusli qalamni tanlash kerak bo'lgan hollarda ancha qiynaldilar, chunki ulardan qaysi rangni olyapsan deb so'ralganda rang nomini zo'rg'a ko'rsatib bera oladi xolos. Shunday qilib, maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar sensor rivojlanishini o'rganish eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar va 1-sinf o'quvchilarning sensor tarbiyasi texnologiyasini yaratish maqsadga muvofiq va zarur ekanidan dalolat beradi. Ilmiy asoslangan sensor tarbiya tizimini yaratish uchun eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning sensor rivojlanishining xususiyatlarini ochib beradigan umumiy xarakteristikasiga ega bo'lish lozim.

Dissertatsiyaning **“Eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarini sensor jihatdan rivojlantirishning mazmuni, usullari va shart-sharoitlari”** deb nomlangan uchinchi bobida eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarida sensor etalonlarni ta'lim jarayonida va o'qishdan keyingi vaqtlarda rivojlantirishning mazmuni, usullari va shart-sharoitlari ishlab chiqildi va ta'limiy eksperiment natijalari umumlashtirildi.

Ta'limiy tajriba-sinovi 2018-2019-yillar davomida ikkita tajriba I tajriba guruhi (6-7 yoshli zaif eshituvchi va kar bolalar), II tajriba guruhi (7-8-9 yoshli zaif eshituvchi va kar o'quvchilar) va ikkita nazorat guruhlarida (6-7 va 7-8-9 yoshli zaif eshituvchi va kar bolalar) olib borildi.


Eshitishda nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarida sensor etalonlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar 101-kar bolalar maktab-internati, 106-ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida, Toshkent viloyati Olmaliq shahar 80-ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internati, Jizzax shahar 1-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida tashkil etildi. Jami 170 nafar o'quvchilar jalb etildi, shulardan 80 nafari tayyorlov sinf va 90 nafari 1-sinf eshitishda nuqsoni bor o'quvchilar qatnashdi.

Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirildi: eshitishda nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarining sensor tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan asosiy tamoyil va omillarni tadqiq etish; eshitishda nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarining sensor tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan texnologiyani ishlab chiqish; eshitishda nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarining sensor tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan ta'limiy tajriba-sinovni amalga oshirish; eshitishda nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilarining sensor tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan nazorat tajriba-sinovini o'tkazish.

Ta'limiy tajriba-sinov metodikasini ishlab chiqishda biz Rossiya olimlarining L.S. Vigotskiy, B.G.Ananayev, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, A.V. Zaporozhskiy, L.A.Venger tomonidan ishlab chiqilgan idrok etish nazariyasiga tayandik: ya'ni sezish va idrok etish analizatorlarning alohida xatti-harakatlari bo'lib, ular predmet va uning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga qaratilgan bo'lib, bola analizatorlarini rivojlantirish deganda uni perseptiv xatti-harakatlarga o'rgatish tushuniladi. Perseptiv xatti-harakatlar yordamida bola predmetdagi yangi sifatlar va xususiyatlarni idrok etadi.

